

KONFLIKT IJTIMOY VOQELIK FENOMENI SIFATIDA

Meyliyev Sa'dulla Nazarovich,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrasida Psixologiya o'qituvchisi,
O'zbekiston

Annotatsiya. Konfliktlar, pedagogik konfliktlar, ularni bartaraf etish, konfliktlarni boshqarish va ularning tabiati muammosi pedagogika, psixologiya va menejment sohalarida alohida ahamiyatga ega. Ushbu maqolada ushbu masala bo'yicha tadqiqotlar haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: konfliktlar, tahlillar, pedagogik va psixologik konfliktlar, shaxslararo konfliktlar

CONFLICT AS A PHENOMENON OF SOCIAL REALITY

Sadulla Nazarovich Meyliyev,
Teacher of Psychology, Department of Social Sciences, Shakhrisabz State Pedagogical Institute,
Uzbekistan

Abstract. Conflicts, pedagogical conflicts, their elimination, conflict management and the problem of their nature are of particular relevance in the fields of pedagogy, psychology and management. This article provides an overview of research on this issue.

Keywords: conflicts, analysis, pedagogical and psychological conflicts, interpersonal conflict.

КОНФЛИКТ КАК ФЕНОМЕН СОЦИАЛЬНОЙ РЕАЛЬНОСТИ

Мейлиев Саъдулла Назарович,
Преподаватель психологии кафедры социальных наук Шахрисабзского государственного педагогического института, Узбекистан

Аннотация. Конфликты, педагогические конфликты, их устранение, управление конфликтами и проблема их природы приобретают особую актуальность в областях педагогики, психологии и менеджмента. В данной статье представлен обзор исследований по этому вопросу.

Ключевые слова: конфликты, анализ, педагогико-психологические конфликты, межличностный конфликт.

Pedagogik konfliktlarga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, konflikt (nizo) juda keng tarqalgan hodisa, ijtimoiy voqelik fenomeni sifatida ham umumilmiy, ham sohaviy ko'rinishda namoyon bo'ladi. "Konflikt" tushunchasining turli darajalari mavjud: hayotiy konflikt – to'qnashuv, bahs, janjal, mushtlashuv ko'rinishida; falsafiy konflikt – turfafikrlilikning rivojlanishida yuzaga keladigan vaziyat sifatidagi shakli; ijtimoiy-etnik konflikt – o'tkir vaziyat, shaxsiy munosabatlar va kishilar, ijtimoiy guruhlar, ijtimoiy institutlar va umuman, jamiyatning umumiy qabul qilingan, tasdiqlangan ahloq me'yorlari to'qnashuvi natijalari ko'rinishida; shuningdek, psixologik konflikt – qarama-qarshi tomonlar, kuchlar, intilishlar, manfaatlar va ehtiyojlar, motivlar va qiziqishlar to'qnashuvi [1] kabi ko'rinishidagi darajalari mavjud.

Konflikt "conflictus" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "to'qnashuv"[2] mazmunini anglatadi. 2006-yilda nashr qilingan "O'zbek tilining izohli lug'atida" "konflikt" – "to'qnashish", "qarama-qarshilik" sifatida izohlanadi. Konflikt – qarama-qarshi tomonlar, fikr, kuch va shu kabilarning to'qnashuvi; jiddiy kelishmovchilik, keskin nizo; xalqaro munosabatlarda ba'zan qurolli to'qnashuvlarga olib keladigan janjal, mojaro sifatida ta'riflanadi.

Falsafa qomusiy lug'atida konflikt tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan. Konflikt (lot conflictus – ihtilof, to'qnashuv, nizo) hayotiy ziddiyatlar, insonlarning istak va intilishlari, his-tuyg'ulari va ehtirolari, o'y-fikrlari va xatti-harakatlaridagi qarama-qarshiliklar, kuchli, dramatik to'qnashuvlar, kelishmovchiliklar; kishilarning ongi va dunyoqarashi, kayfiyati fe'l-atvoridagi qarama-qarshiliklar, kelishmovchilik va ziddiyatlarni san'atda, ilmiy va badiiy adabiyotda ifodalash shakli. Konflikt – jamiyat taraqqiyotining muayyan ijtimoiy kuchlari va an'alarining to'qnashuvi asosida yuzaga keladi va yechiladi. An'anaviy ma'nodagi tenglik va tengsizlik, adolat va adolatsizlik, to'g'ri va egri, rost va yolg'on, yaxshilik va yomonlik, ma'rifat va xurofot, zulmat va nur, eskilik va yangilik kabi ko'plab qarama-qarshi va zid hodisalar tarzida namoyon bo'ladi[3].

M.Ahmedovaning "Pedagogik konfliktologiya" nomli o'quv qo'llanmasida "konflikt – o'zaro qarama-

qarshi bo‘lgan ziddiyatli manfaatlar va munosabatlarning ochiq to‘qnashuvi”[4] sifatida izohlanadi.

Yuqoridagilardan xulosa qilish mumkinki, konflikt – sig‘ishmaydigan maqsadlarga ega yoki, shunday maqsadlar haqida fikr yurituvchi ikki va undan ortiq tomonlar (shaxslar va guruhlar) o‘rtasidagi munosabatlardir. Konflikt “murakkab tizimlarning uzviyligi usuli” sifatida baholanadi. U ziddiyatli tomonlarning ajratilishi va qo‘shilishi faktori sifatida xizmat qilishi mumkin. Ikki tizim orasidagi konfliktlar yangi konflikt tizimini vujudga keltiradi. Konfliktga kirishuvchi tizimlarni boshqarishda hal qiluvchi rolni qarama-qarshi tomonlarning bir-biri haqidagi axborotga qanchalik ega ekanligi muhim rol o‘ynaydi. Muhim gnoseologik vosita sifatida tizimli misollarni keltirish mumkin, bunday modullar kattalashtirish darajasida ko‘rilishi va eksperimental tadqiq etish imkonini berishi mumkin.

Oliy ta‘lim tizimida kuzatiladigan pedagogik konfliktlarga to‘xtalishdan oldin pedagogik konflikt tushunchasining mazmunini izohlashni zarur deb hisoblaymiz. A.S.Belkin, pedagogik konfliktlarni “o‘quv-tarbiya jarayonida pedagog va ta‘lim oluvchilarning manfaatlarini to‘qnashuvi natijasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarda munosabatlarning hal qilinishi va uyg‘unlashtirishi”[5] deb tushunadi.

S.V. Ванькина turli fikrlarni umumlashtirib, pedagogik nizolarning keyingi ta‘rifini beradi: “o‘quv-tarbiya jarayoni qatnashchilarining kasbiy va o‘zaro harakati natijasida subyekt-subyekt qarama-qarshiliklarining namoyon bo‘lishi, murakkablashishi shaklida yuzaga keladigan, muloqotda barcha salbiy emotsiyalarining aks etishiga sabab bo‘ladigan va konflikt tomonlarining qarama-qarshiliklariga sabab bo‘lgan manfaatlarini bartaraf etishda to‘qnashuvning konstruktiv tomonga o‘zgarishidir”[6].

A.V.Melnichuk pedagogik konfliktga ta‘limiy jarayonda madaniyatlararo pedagogik o‘zaro ta‘sirlashishda subyektlar o‘rtasida rozilikning mavjud emasligi, ta‘lim maqsadlari, jamiyatning va ijtimoiy madaniy buyurtmalarini bajarishda o‘quv muassasalarining samarali funksional strukturaviy quyi tizimlariga salbiy ta‘siri sifatida qaraydi.

V.I.Juravlev pedagogik nizolarning tabiatida “ikki xil qarama-qarshiliklar”ga diqqatini qaratadi: dialektik qarama-qarshiliklar – pedagogik tuzilmaning taraqqiyoti, rivojlanishning sharti sifatidagi obyektiv o‘zaro ta‘sirlanish; maktablar, kafedralar, fakultetlar rahbarlari yoki o‘qituvchilarining tasodifiy noto‘g‘ri qarorlar sababli kelib chiqadigan tasodifiy qarama-qarshiliklardir.

Mualliflarning fikrlariga tayangan holda pedagogik konfliktga ta‘limiy maqsadlar, manfaatlarning o‘zaro zidligi natijasida pedagogik jarayon subyektlari o‘rtasidagi ochiq to‘qnashuv, pedagogik qarama-qarshilikning ifodalanishi, va o‘zaro munosabatlarni pedagogik jihatdan muvofiqligini ta‘minlashga qaratilgan, konstruktiv qarorga bo‘lgan talablardir deb ta‘rif berishimiz mumkin.

Pedagogik konflikt ta‘lim jarayonida ishtirokchilarning kasbiy va shaxslararo o‘zaro ta‘siri natijasida yuzaga keladigan, subyektiv qarama-qarshiliklar namoyon bo‘lishining bir shakli sifatida qaraladi. Har qanday konflikt yuzaga kelishining sabablari – bu jamiyatda o‘zaro aloqada bo‘lgan subyektlarning boshidan kechiradigan qarama-qarshiliklaridir. Pedagogik va psixologik adabiyotlar tahliliga ko‘ra ta‘lim muhitida bunday qarama-qarshiliklarning sabablari turlicha bo‘lishi mumkin. Pedagogik ziddiyat – bu qoida tariqasida obyektiv va subyektiv sabablarga ko‘ra yuzaga keladigan murakkab hodisa sanaladi. M.M.Ribakovaning tadqiqotlari bo‘yicha pedagogik konfliktlarning sabablariga ko‘ra quyidagi tipologiyasini ko‘rib chiqamiz:

1. Obyektiv sabablarga ko‘ra kelib chiqadigan nizolar: o‘qituvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy holati, pedagogik faoliyat shart-sharoitlariga ko‘ra kelib chiqadigan konfliktlar (muhit, etnik jihatlar).

2. Ta‘lim jarayoni ishtirokchilarining xatti-harakatlari bilan bog‘liqlikdagi konfliktlar.

3. Ta‘lim muassasasidagi shaxslararo munosabatlarning xususiyatlari (subyektiv sabablarga ko‘ra), va ta‘lim jarayonining har bir ishtirokchisining psixologik xususiyatlari (yoshi, individual psixologik, ijtimoiy-psixologik) bilan bog‘liq konfliktlar.

S.A.Mustafayevaning “Pedagogik ziddiyatlar: sabablari va ularni hal qilish yo‘llari” maqolasida “o‘qituvchi-talaba”ning shaxslararo o‘zaro to‘qnashuvning quyidagi sabablari ajratib ko‘rsatilganligini ko‘rishimiz mumkin:

intizomiy (xulq-atvor ziddiyatlari);

motivatsion (ko‘p yo‘nalishli motivlar to‘qnashuvi);

axloqiy-etik (pedagogik faoliyatdagi muloqotda yuzaga keluvchi (M. M. Рыbakova);

qadriyatlar tizimidagi farqlar tufayli (V. M. Afonkova, S. M. Berezin, M. R. Bityanova, V. I. Juravlev,

N. I. Samoukina);

o‘qituvchilar va talabalarning subyektiv munosabatlari pedagogik konfliktlarning sabablari bo‘lishi

mumkin.

Ushbu keltirilgan sabablar va pedagogik-psixologik adabiyotlar tahliliga ko'ra oliy ta'lim muassasalarida pedagogik nizolarning quyidagi turlari kuzatilishi mumkin:

ichki shaxsiy, shaxsning motivlari, qiziqishlari, qadriyatlarini, anglangan va anglanmagan (ong osti sohasiga doir) manfaatlarining kurashini aks ettiruvchi nizolar;

shaxslararo, o'z hayotiy faoliyatida qarama-qarshi niyat, orzu, istak va maqsadlarni amalga oshirishga intiluvchi shaxslarni ifoda etuvchi nizolar;

guruhlararo, biri-biriga mos kelmaydigan maqsadlarni ko'zlagan va ularni amalga oshirish yo'lida bir-biriga to'sqinlik qiluvchi ijtimoiy guruhlararo nizolar;

shaxsiy-guruhli, shaxs xulqining, guruh qoidalari, intilishlari va qadriyatlariga mos kelmasligi holatlarida yuzaga keladigan nizolar.

Pedagogik jarayon o'ziga xos murakkab ijtimoiy tuzilma bo'lib, shaxslararo aloqalarning doimiy tuzulmasidan iboratdir. Albatta, bu jarayonda ikki subyekt o'rtasidagi munosabatlarning ijobiy shakl doirasidan chetga chiqish holatlari ham kuzatiladi va eng ko'p uchraydigan shaxslararo konfliktlarning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: "talaba-talaba", "pedagog-talaba", "pedagog-pedagog", "pedagog-ma'muriyat", "pedagog-ota-ona". Ushbu shaxslararo konfliktlar qadriyatlar tizimi, dunyoqarash pozitsiyalari, fikrlar va ustanovkalarining qarama-qarshiligiga asoslanadi.

Adabiyotlar:

Ефимова Е.Е. Формирование конфликтной компетентности будущего учителя: Дис. ... канд. пед. наук. – Волгоград, 2001. – 70 с

Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006. – 672 б

Фалсафа қомусий луғат. – Т.: "Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти" нашриёти, 2004. – Б. 203-204

Аҳмедова М. Педагогик конфликтология: Ўқув қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2014. – Б. 191-200

Белкин А.С., Фоменко С.Л. О проблеме повышения профессиональной компетентности работников на современном этапе развития образования // Вестник института развития образования и повышения квалификации педагогических кадров при ЧГПУ. – Ч., 2004. – № 25. – 2004. – 15 с.

Банькина С.В. Конфликтологическая служба школы: статус и содержание деятельности: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 1997. – 20 с.